




**Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini
umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning
pedagogik xususiyatlari**
Soliyev Ilhomjon Sobirovich

FarDU, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Shokirjonova Zuhraxon Murodjon qizi.

FarDU, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12154178>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 6-iyun 2024 yil
Ma'qullandi: 9-iyun 2024 yil
Nashr qilindi: 19-iyun 2024 yil

KEY WORDS

*kompetensiya, kompetentlik,
deklaratsiya, motivatsion, mehanizm,
intelektual, estetik, modernizatsiya.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim
tashkilotlari tarbiyachilarini umummadaniy
kompetensiyalarini rivojlantirishning
pedagogik xususiyatlari haqida so'z boradi.*

Mamlakatda milliy genofondni mustahkamlash, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda. 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda ta'lim tizimini rivojlantirishning ko'plab yo'nalishlari belgilab berildi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi.

O'zbekiston Prezidenti sohada xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar uchun sifatli ta'lim muammolarini global darajada samarali hal qilish, birgalikda tezkor yechimlar va tizimli yondashuvlar ishlab chiqish maqsadida mazkur xalqaro konferensiyani muntazam ravishda o'tkazib borish taklifi bildirildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari oldiga barkamol avlodni tarbiyalash hamda ularni maktab ta'limiga har tomonlama tayyor, zamon talablariga mos ravishda jismoniy, aqliy intellektual, ijodiy va shu kabi qobiliyatlarini rivojlantirish va mustaqil Vatanimizning ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qiladi- gan ruhda tarbiyalash lozimligi dolzarb vazifa qilib qo'yilgan. Shunday ekan, zamon talablaridan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga yangicha yondashuvlarni joriy etish malakasi, qisqa qilib aytganda, tarbiyachilarning o'zlarida kreativ kompetentlik rivojlangan bo'lishi kerak. Zero, o'zi kreativ salohiyatga ega bo'lmagan tarbiyachi yoki mutaxassis bolada ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirmaydi.

Zamonaviy sharoitda har bir shaxsning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish va rivojlantirish masalasi ayniqsa dolzarbdir. Jamiyat ijtimoiy faol a'zolarga, kreativ va ijodkor shaxslarga shoshilinch ehtiyojni boshdan kechirmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuvi - ijtimoiy ahamiyati, yangiligi, o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan inson faoliyati va mustaqil faoliyatining oliy shaklidir. Ijodkorlik va kreativlik qobiliyatlarining tabiatiga bo'lgan qiziqish fan va texnikaning rivojlanishi va ularning oldida tobora murakkablashib borayotgan muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan tarbiyachilarni tayyorlash zarurati bilan bog'liq holda alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir, dedi prezident. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi.

Maktabgacha ta'lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Biz qabul qilayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga bilim asoslarini, eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadiganlar yuqori malakali tarbiyachi va murabbiylardir, deya ta'kidlandi yig'ilishda.

Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifadir.

Maktabgacha ta'lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Biz qabul qilayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga bilim asoslarini, eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadiganlar yuqori malakali tarbiyachi va murabbiylardir, deya ta'kidlandi yig'ilishda.

Respublikamizda o'sib kelayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga etkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari, hamda usullarini joriy etish, maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "...maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish" muhim vazifalar sifatida belgilab qo'yildi.

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ularning talabalik davridan ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada aksiologik yondashuv asosida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy jihatdan ta'lim tizimida "kompetentlik" tushunchasining kirib kelishi va uning ahamiyatining qabul qilinishiga nisbatan quyidagi bosqichlar ajratiladi: Birinchi bosqichda (1960-1970-yillar) — ilmiy doiralar va muomalaga "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari kirib keldi va ularning amal qilish qoidalari, qo'llanilish xususiyatlari belgilandi. Birinchi bor "kompetensiya" atamasi 1965-yilda Massachusetts universiteti o'qituvchisi

N.Xomskiy tomonidan ishlatiladi. Bu so'zning semantik chegarasi bugungi kunda juda keng bo'lib, aslida bu so'z "kelishuv", "kelishuvchanlik", "biror bir narsaga mos kelish", "mos bo'lish" ma'nolarini anglatadi. Bugungi kunda mazkur so'z ko'proq "faoliyat olib borishning universal, ya'ni hamma uchun mos bo'lgan umumiy xususiyatlari va talablari majmuini" anglatadi.

Ikkinchi bosqichda (1970-1990-yillar) "kompetensiya" istilohining qo'llanilish doirasi keskin o'sadi, mazkur so'z maxsus istilohga aylanadi va biror bir sohaga oid xususiyatlar jamlanmasini anglatib boshlaydi hamda til nazariyasi, menejment, kommunikatsiyalarni tashkil qilishda qo'llaniladi. J.Raven o'ziga ilmiy vazifa qilib, zamonaviy jamiyat nuqtai nazaridan mutaxassislik kompetensiyasi nimaga teng degan masalani qo'yadi va effektivlikni ta'minlovchi kompetensiyaning 37 ta komponentini ajratib, ko'rsatib beradi va ularni "motivatsion qobiliyat" deb ta'kidlaydi.

Uchinchi bosqichda (1990-2001-yillar) butun dunyo, MDHda, xususan Rossiyada "Boloniya deklaratsiyasi" ijro va ta'lim taraqqiyoti uchun qabul qilindi, ta'lim islohotlarining maqsadlaridan biri mutaxassisning kvalimetrik ko'rsatkichlarining bosh xususiyati qilib aynan "kasbiy kompetentlik" masalasi qo'yila boshladi. Bu davrda Rossiyaning qator olimlari, xususan A.K.Markova, A.V.Xutorskiy va boshqalar kasbiy kompetentlik tushunchasini psixologiya va pedagogika nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy va metodik jihatdan ishlab chiqdilar.

Mamlakatimiz pedagog olimlari A.Abduqodirov, R.H.Jo'rayev, Z.K.Ismoilova, E.R.Yuzlikayeva, M.B.Urazova, K.D.Risqulovalarning tadqiqot ishlarida oliy ta'lim muassalarida ta'limni intensivlashtirish hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish, yosh o'qituvchilarning kompetensiyasi va unga qo'yiladigan didaktik talablar, ushbu atamaning mazmuni, uning tarkibiy qismlari, shakllanish bosqichlari, ta'lim samaradorligini ta'minlashda motivatsiyaning o'rni haqidagi zamonaviy yondashuvlar kabi muammolarning ilmiynazariy asoslari o'z aksini topgan.

Shaxsning kompetentsiyaviy ijtimoiy xulq-atvori shakllanishi mexanizmlari, namoyon bo'lish tendensiyalari, motivatsiyasi, mazmuniga bo'lgan qiziqish, avvalo, "inson-jamiyat" o'zaro aloqasi xarakterining ijtimoiy ravnaqi, rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri bilan tavsiflanadi.

Kichik yoshdagi bolalar ta'limi bo'yicha jahon tashkiloti bilan qo'shma loyiha va tadqiqotlar olib borish, tarbiyaning yangicha uslublari va metodik qo'llanmalarni tayyorlash uchun keng qamrovli dastur ishlab chiqish zaruriyati tug'iladi. Sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy interaktiv o'qitish uslublari, amaliy bilim va ko'nikmalar bilan o'zaro almashishlari lozim bo'ladi.

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ularning talabalik davridan ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada aksiologik yondashuv asosida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi millatlararo bag'rikenglik va tolerantlik jamiyatida maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etar ekan, demak, tarbiyachilarda ushbu xususiyatlarni rivojlantirish, takomillashtirish zarurat sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017. 24-iyun. "Xalq so'zi" gazetasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonun
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. - T.: 124 Istiqlol, 2019. - B. 3-8b
4. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada
5. takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son qarori.
6. 29.12.2016.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.10.2018 y., 07/18/3955/1978-son, 13.12.2018 y., 06/18/5597/2300-son, 05.07.2019 y., 06/19/5759/3385-son; 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son, 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2018-yil 18-iyundagi 1450-sonli "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida"gi Buyrug'i / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018 y., 10/18/3032/1450-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. -T.: 2022.
10. Raven J. (1984). Competence in modern society: Its Identification, Development and Release. - UK. P.220.
11. Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Знание, 1996. - 340 с.
12. Бердиева Х.Б. Развитие социокультурной компетентности у будущих учителей начальных классов //Педагогическое образование и наука. - 2020. - №. 1. - С. 128-131.
13. Richard E. Boyatzis. David C. McClelland: For The Wiley Encyclopedia of Personality and Individual Differences Volume IV: Clinical, Applied and Cross - Cultural Research. December 5, 2016. - 146 p.
14. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-prezidenti-maktabgacha-talim-sohasida-xalqaro-hamkorlikni-kengaytirish-boyicha-muhim-tashabbuslarni-ilgari-surdi>